

Ro'zmetova Sohiba Tohir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

sohibatohirovna@gmail.com

MASOFAFIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SO'Z BOYLI GI VA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJRANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishda so'z boyligi va og'zaki nutqni rivojlantirish mexanizmlari empirik tadqiqot asosida o'rganilgan. Tadqiqot Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining masofaviy tahsil olayotgan iqtisodiyot va menejment yo'nalishi talabalari ishtirokida tashkil etilgan bo'lib, ikki guruh: tajriba (Quizlet va Padlet platformalari asosida) va nazorat (Zoom va PDF materiallar asosida) guruhlar natijalari taqqoslanib tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, interaktiv texnologiyalardan foydalanilgan guruh talabalari lug'at boyligi va og'zaki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan. Maqolada zamonaviy pedagogik modellar (TBLT, Microlearning) va texnologik mexanizmlar (AI adaptiv dasturlari, AR/VR texnologiyalari, self-assessment) asosida til o'rganishni rivojlantirish usullari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot masofaviy ta'limda ingliz tilini o'rgatish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi va kelajakda masofaviy ta'lim olayotgan talabalarda ingliz tilini tez va oson o'zlashtirishlari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, so'z boyligini rivojlantirish, og'zaki nutq rivoji, texnologik platformalar, Quizlet, Padlet, Microlearning, Flipped Classroom, Task-Based Language Teaching (TBLT), self-recording, self-assessment, gamifikatsiya, AR/VR texnologiyalari, AI adaptiv dasturlar.

Рузметова Сохиба Тахировна

Базовый докторант Чирчикский государственный педагогический университета

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА И УСТНОЙ РЕЧИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ

Аннотация: В данной статье на основе эмпирического исследования изучены механизмы развития словарного запаса и устной речи при обучении английскому языку в условиях дистанционного обучения. Исследование было организовано с участием студентов факультета экономики и менеджмента узбекского национального университета им.Мирзо Улугбека, обучающихся на дистанционном уровне, с сопоставительным анализом результатов двух групп: экспериментальной (на основе платформ Quizlet и padlet) и контрольной (на основе материалов Zoom и PDF). По результатам было установлено, что учащиеся группы, в которой использовались интерактивные технологии, значительно улучшили словарный запас и навыки устной речи. В статье научно проанализированы методы развития изучения языка на основе современных педагогических моделей (TBLT, микрообучение) и технологических механизмов (AI Adaptive Applications, AR/VR Technology, self-assessment). Исследование раскрывает важность инновационных подходов к повышению эффективности преподавания английского языка в дистанционном обучении и дает практические рекомендации для будущих студентов, обучающихся дистанционно, чтобы они могли быстро и легко овладеть английским языком.

Ключевые слова: дистанционное обучение, развитие словарного запаса, развитие устной речи, технологические платформы, викторина, микрообучение, Перевернутый класс, обучение языку на основе задач (Tblt), самостоятельная запись, самооценка, геймификация, технологии AR/VR, адаптивные приложения AI.

Ruzmetova Sohiba Tohir kizi

Chirchik State Pedagogical University, PhD Student

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF VOCABULARY AND ORAL SPEECH IN TEACHING ENGLISH IN DISTANCE LEARNING

Annotation: *In this article, the mechanisms for the development of vocabulary and oral speech in teaching English in the context of distance education are studied on the basis of empirical research. The study was organized with the participation of students of the direction of economics of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, and the results of two groups: experimental (based on Quizlet and Padlet platforms) and control (based on Zoom and PDF Materials) groups were analyzed by comparison. According to the results, it was found that the group students who used interactive technologies significantly increased their vocabulary wealth and verbal skills. The article analyzes the methods of developing language learning on the basis of modern pedagogical models (Flipped classroom, TBLT, Microlearning) and technological mechanisms (AI adaptive programs, AR/VR technologies, self-assessment) on a scientific basis. The study reveals the importance of innovative approaches to improve the effectiveness of teaching English in distance education and provides practical recommendations for the future.*

Keywords: *distance education, vocabulary development, oral speech development, technological platforms, Quizlet, Padlet, Microlearning, Flipped Classroom, Task-Based Language Teaching (TBLT), Self-recording, Self-assessment, gamification, AR/VR technologies, AI adaptive applications.*

Kirish. Biz hozir XXI asr axborot texnologiyalari taraqqiy topgan va jadal rivojlanayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanayotganligi sababli ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xususan, Covid-19 pandemiyasi davrida butun dunyo bo'ylab masofaviy ta'lim shakli keng joriy qilindi, buning natijasida talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda texnologik platformalardan foydalanish zaruriyati yuzaga keldi.

So'ngi yillarda ingliz tilini masofaviy o'qitish yuzasidan mamlakatimizda bir qator qarorlar va xujjatlar qabul qilingan. Xususan, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909

sonli qaror “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Bu qarorda ingliz tilini o‘rgatish tizimini modernizatsiya qilish va zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini, jumladan, onlayn va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini keng joriy etish vazifasi belgilangan.

2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaror “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Ingliz tilini, ayniqsa, masofaviy shaklda o‘rganish uchun onlayn platformalarni rivojlantirish va chet tillarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish majburiyati belgilangandi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qarorlarida 2020–2021 yillarda COVID-19 pandemiyasi sababli O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy o‘qitish tartibi joriy qilingan. Vazirlik tomonidan e’lon qilingan me’yoriy xujjatlarda ingliz tilini masofadan o‘rgatishda Moodle, Zoom, Google Meet va boshqa platformalardan foydalanish ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekistonda Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xorijiy tillarni (xususan ingliz tilini) o‘qitishda masofaviy, raqamli va innovatsion metodlar keng joriy etilishi belgilangan. Bu borada xalqaro darajadagi bir qator xujjatlar ham qabul qilingan. Masalan, 2020-yilda UNESCO tomonidan “Distance learning solutions” xujjatida pandemiya sharoitida ingliz tilini masofaviy o‘rganish uchun maxsus platformalar va metodikalar tavsiya qilingan.

Bugungi kunda ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida barcha sohalarda, jumladan, matematika, kimyo, fizika, moliya, iqtisodiyot kabi nofilologik yo‘nalishlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalaridagi nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘rgatish faqat o‘qish va grammatika ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning so‘z boyligini oshirish va og‘zaki nutqni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratishni talab etmoqda. Ma’lumki masofaviy ta’lim shaklida o‘qitishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bevosita muloqot imkoniyati kam bo‘ladi, natijada esa bu og‘zaki nutq va so‘z boyligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababdan interaktiv platformalar yordamida talabalarning bilimlarini mustahkamlash, ularni darsda faol

ishtirok etishga undash va ularning ogʻzaki nutq rivojlanishini ragʻbatlantirish dolzarb masalaga aylangan. Bugungi kunda talabalarning soʻz boyligini oshirish va mustaqil shaklda ogʻzaki nutq mashqlarini bajarishlari uchun Padlet, Kahoot, Quizlet kabi bir qancha onlayn platformalar keng qoʻllanilmoqda. Qolaversa, talabalar oʻzlarining nuqt faloiyatini rivojlantirishi va mustaqil tahlil qilishlari uchun self-recording, self-assessment kabi texnikalar ham qulay imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu tadqiqotda Mirzo ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universitetining iqtisodiyot va menejment yoʻnalishida masofaviy tahsil olayotgan 100 nafar talabalarning ishtirokida eksperiment tashkil etildi. Bu tadqiqotimizda Quizlet va Padlet kabi zamonaviy platformalarning soʻz boyligi va ogʻzaki nutq rivojlanishiga taʼsiri oʻrganildi, Zoom platformasi hamda PDF materiallari orqali tahsil olayotgan nazorat guruhi natijalari bilan solishtirildi.

Adabiyotlar sharhi. Hozirgi davrda masofaviy taʼlim sharoitida Oʻzbekistinlik va xorijiy olimlar tomonidan ingliz tilini sifatli oʻqitish, soʻz boyligi va ogʻzaki nutqni rivojlantirish borasida koʻplab tadqiqotlar oʻtkazilib natijalari tahlil qilinib kelinmoqda. Xususan, respublikamizda ham masofaviy taʼlim asosida oʻqitish borasida bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Jumaladan, N.A.Muslimovning izlanishlarida masofaviy taʼlimni amaliy jihatdan tashkil etishda korrespondentlik taʼlimi, radiotelevizion taʼlim, tarmoqli taʼlim, mobil texnologiyasi va keys texnologiyasi asosida tashkil etiluvchi taʼlim turlaridan unumli foydalanish mumkinligi isbotlangan [3;43]. Sh.Nazirov, X.Bulakbayev, R.Usmonovlar masofaviy taʼlimga asoslangan oʻqitishning samarali texnologiyalarini qoʻllash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan [4;156]. M.Eshchanovning ilmiy maqolasida ingliz tilini masofaviy oʻqitish tizimini joriy qilishning metodologik asoslari tahlil qilingan. Muallif masofaviy taʼlimda audio, video va matnli materiallardan foydalanish, talabalarni mustaqil oʻqishga yoʻnaltirish, interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash kabi jihatlarni yoritgan [5;89].

Xorijiy olimlar tomonidan ham masofaviy taʼlimda soʻz boyligi va gapirish qobiliyatini rivojlantirish boʻyicha keng miqyosda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. P.Benson oʻz ishida self-assessment (oʻzini oʻzi baholash) va self-recording (oʻz

ovozini yozib olish) metodlarining til o'rganishdagi samaradorligini asoslab bergan [6;10]. G.Stockwell Quizlet, Padlet va Edmodo kabi platformalarning so'z boyligini interaktiv o'rganish uchun yuqori samaradorlikka ega ekanini aniqlagan [7;209]. Shuningdek, Winke esa mobil ilovalardan foydalanish talabalar so'z boyligini rivojlantirishda motivatsiyani oshirishi va darslarni yanada interaktiv qilishini ko'rsatib bergan [8;20].

Metodlar. Ushbu tadqiqot ishi masofaviy ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'qitishda so'z boyligi hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining iqtisodiyot va menejment yo'nalishida masofaviy tahsil olayotgan 100 nafar talabalarning ishtirokida tashkil etilgan tadqiqotimizda tajriba hamda nazorat guruhlarini taqqoslash orqali texnologik platformalarning ta'lim sifati va natijalariga ta'siri o'rganildi. Ushbu tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida eksperiment, statistik tahlil, taqqoslash va analitik sharh metodlardan keng foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqotimiz yakunida tajriba va nazorat guruhlari talabalarining so'z boyligi va og'zaki nutq rivojlanish darajasini baholash uchun post-test o'tkazildi. Pre-test va post-test natijalari tahlil qilinib, o'zgarishlar statistik jihatdan solishtirildi.

Tajriba guruh — Quizlet va Padlet kabi interaktiv platformalar yordamida o'qitilgan talabalar so'z boyligi va og'zaki nutqda sezilarli rivojlanish ko'rsatdilar.

Nazorat guruhi — faqat PDF va Zoom asosida o'rgatilgan talabalar esa ancha kam o'sishga erishdilar. Quyidagi diagramma orqali olingan natijalarni va o'zgarishlarni yaqqol ko'rish mumkin:




Diagramma 1.

Tajriba va nazorat guruhlarining pre-test va post-test natijalari

Yuqoridagi diagrammada olingan natijalar interaktiv platformalarning (Quizlet va Padlet) talabalarining ingliz tilini o'rganishlarida ijobiy ta'sir ko'rsatganini isbotlaydi. Tajriba guruh talabalari mustaqil o'rganish, interaktiv topshiriqlar va self-assessment metodlari yordamida lug'at boyligini va og'zaki nutqni tezroq rivojlantirganlar. Tajriba-sinov ishlaridan oldin har ikki guruhning boshlang'ich ko'rsatkichlari deyarli teng edi (45-46%). Tajriba-sinov so'ngida esa farq sezilarli darajada o'zgargan: tajriba guruhida +33% o'sish, nazorat guruhida esa +12%. T-test statistik tahlil natijasida tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi farq $p < 0.01$ darajada ishonchli deb topildi, bu esa natijalarni ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishda interaktiv texnologik platformalardan foydalanish talabalar so'z boyligi va og'zaki nutqining rivojlanishida muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Tajriba guruhi talabalari Quizlet va Padlet kabi vositalar orqali mustaqil ravishda so'z yodlash, gapirish mashqlari bajarish va interaktiv topshiriqlarda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa ularning lug'at boyligi va muloqot kompetensiyalarining nazorat guruhiga nisbatan tezroq va samaraliroq rivojlanishiga olib keldi.

Tajriba-sinov davomida talabalarning duch kelgan asosiy qiyinchiliklari quyidagicha aniqlandi:

Motivatsiya pastligi: Masofaviy ta'limda talabalarni doimiy ravishda darslarga jalb etish qiyin bo'ldi. Ba'zi talabalar uy sharoitida chalg'uvchilarning ko'pligi va mustaqil ishlashdagi sustkashlik tufayli faol ishtirok etmadilar.

Texnik nosozliklar: Internet tezligining pastligi, platformalarga kirishdagi muammolar ayrim talabalar uchun dars jarayonini qiyinlashtirdi.

Interaktiv muloqot yetishmasligi: Zoom orqali statik materiallar asosida o'rganilgan nazorat guruhi talabalari darslardagi interaktivlik yetishmasligi sababli og'zaki nutq mashqlarida kamroq faol ishtirok etdilar.

Bu muammolar masofaviy ta'limda texnologik vositalardan foydalanish faqat imkoniyat yaratish emas, balki ularni to'g'ri va samarali integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning qiyinchiliklarini yengillashtirish va ularni faol o'rganishga jalb etish uchun quyidagi yechimlar qo'llandi:

Feedback tizimini kuchaytirish: Har bir mashg'ulotdan so'ng talabalar uchun yozma va og'zaki mulohazalar berildi, bu esa ularning o'z xatolarini anglab, ularni tuzatish imkoniyatini yaratdi.

Gamifikatsiya elementlarini kiritish: Darslarga ball yig'ish, reytinglar va kichik sovrinlar tizimi kiritildi. Bu talabalar orasida sog'lom raqobat va motivatsiyani oshirdi.

Real-time mashg'ulotlar tashkil etish: Padlet orqali talabalar o'z javoblarini real vaqt rejimida yuborishdi, bu esa faol muloqot va tezkor javoblarni ta'minladi.

Bu yondashuvlar masofaviy sharoitda ham talabalarning faolligi va ishtirokini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi.

Tajriba-sinov davomida talabalar tomonidan tez-tez uchratilgan xatolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari aniqlandi:

Xato turi	Tavsif	Tuzatish mexanizmi
Grammatik xatolar	So'z tartibi, fe'l zamonlari, predloglar xatolari	<i>Self-recording</i> texnikasi: talabalar o'z nutqlarini yozib, o'z xatolarini mustaqil tahlil qilishdi

Lug‘at boyligi kamligi	Gapda mos so‘z tanlay olmaslik, sinonimlardan foydalanmaslik	<i>Vocabulary Journals va Word Clusters:</i> yangi so‘zlarni mavzular bo‘yicha guruhlash va kundalik saqlash orqali boyitish
Nutqning ravon emasligi	Uzoq pauzalar, so‘zlar orasidagi uzilishlar	<i>Role-play mashg‘ulotlari va real-time interaktiv topshiriqlar</i> yordamida mashq qilish

Bu mexanizmlar talabalarni nutqiy xatolarini mustaqil aniqlash va bartaraf etishga o‘rgatdi.

Masofaviy ta'limda so‘z boyligi va og‘zaki nutqni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va modellar ijobiy rol o‘ynadi:

Microlearning yondashuvi orqali kichik, qisqa modul asosidagi mashg‘ulotlar talabalarning doimiy o‘rganish motivatsiyasini saqlab qoldi.

Flipped Classroom modeli yordamida talabalar darsdan oldin mustaqil tayyorgarlik ko‘rib, dars davomida faqat amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishdi.

Task-Based Language Teaching (TBLT) orqali real hayotga mos topshiriqlar orqali talabalar o‘z lug‘at va nutq ko‘nikmalarini amaliy mashqlar orqali rivojlantirdilar.

AI asosidagi adaptiv dasturlar (masalan, ELSA Speak) va Augmented Reality (AR) texnologiyalari yordamida talabalarning so‘z boyligini va talaffuzini yanada interaktiv tarzda rivojlantirish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, masofaviy ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologik platformalardan foydalanish so‘z boyligi va og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Quizlet va Padlet platformalari yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar so‘z boyligi va nutq ravonligini oshirishda an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq bo‘ldi. Tajriba guruhi talabalari 2 oylik tajriba-sinov yakunida so‘z boyligi va og‘zaki nutq ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 33% ga oshirdi, nazorat guruhidagi talabalarning rivojlanish darajasi esa 12% atrofida bo‘ldi. T-test natijalari bu farqning statistik

jihatdan ishonchli ekanini tasdiqladi ($p < 0.01$). Umuman olganda, masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitishda texnologik platformalarni metodik jihatdan to'g'ri tanlash va integratsiya qilish natijadorlikni sezilarli oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori <https://lex.uz/docs/3171590>
3. N.A.Muslimov *Bo'lajak kasb ta'limi ukituvchilarini kasbiy shakllantirish*. Monografiya. - T.: «Fan», 2004
4. Sh.Nazirov, X.Bulakbayev, R.Usmonov *Oliy matematika fanini masofadan o'qitish texnologiyalari didaktik ta'minotining elementlari* // Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi: Xalqaro ilmiy -amaliy konferensiya ma'ruzalari. - Toshkent.: TEAI, 2002. - B.156.
5. M.Eshchanov *Masofaviy o'qitish tizimini ingliz tili ta'limiga joriy qilishning metodologik asoslari* International conference on educational innovations and applied sciences 2022/12
6. Benson, P. (2020). *Learner autonomy and technology: Language learning in the digital age*. Language Learning & Technology, 24(3), 10-20. <https://doi.org/10.1017/S0261444820000119>
7. Stockwell, G. (2021). *Technology and second language learning: Theory and practice*. Computer Assisted Language Learning, 34(3), 209–225. <https://doi.org/10.1080/09588221.2020.1846023>

8. Winke, P. (2019). *Using mobile apps for second language vocabulary learning: An empirical study*. Language Teaching Research, 23(1), 20–40.
<https://doi.org/10.1177/1362168817716636>
9. Mo‘minova, M. M. (2022). *Til o‘rganishda masofaviy texnologiyalarning ahamiyati va imkoniyatlari*. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali, 3(1), 88-95.
10. Zokirova, N. (2022). *Masofaviy ta’limda til o‘rganishning zamonaviy usullari*. O‘zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 4(2), 112-117.